

Yaponiya: Barcha xarajatlari to'lanadigan xalqaro forum

Qayerda: Yaponiya, Fukuoka

Kim uchun: Ijtimoiy fanlar sohasida ishlayotgan yoshlar uchun

Hujjat topshirish muddati: 2018-yilning 17-martigacha

Umumiy ma'lumot: 2018-yilning 25-28-sentabr kunlari Yaponiya (Fukuoka) da «World Social Sciences Forum 2018» forumi bo'lib o'tadi. Forum mavzusi - "Security and Equality for Sustainable Futures". To'rt kunlik forum davomida ishtirokchilar xavfsizlik hamda uning barqaror rivojlanishi bilan aloqasi haqida o'rganishadi, o'z fikrlarini bildirishadi hamda ma'ruzalar qilishadi.

Iqtisodiy ta'minot: Ushbu forumga qatnashish uchun grantni qo'lga kiritganlar quyidagi iqtisodiy imkoniyatlar bilan ta'minlanadi:

- Borish va kelish xarajatlari qoplanadi;
- Viza xarajatlari to'lab beriladi;
- 5 kun Yaponiyada turar joy uchun to'lov to'lanadi (kuniga 77 AQSh dollari miqdorida);
- Oziq-ovqat uchun kunlik to'lov to'lanadi (kuniga 17 AQSh dollari miqdorida);
- Ro'yxatdan o'tish to'lovi qoplab beriladi.

Nomzodga qo'yilgan talablar:

- Nomzod ijtimoiy (fanlar) sohada ishlayotgan bo'lishi kerak;
- Nomzod 40 yoshdan oshamagan bo'lishi kerak;
- Nomzod O'zbekiston, Armaniston, Ozarboyjon, Belorussiya, Gruziya, Moldova, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston yoki Ukraina fuqarosi bo'lishi lozim.
- Nomzod doktorlik darajasiga ega bo'lsa, tanlanish ehtimoli yuqoriroq (lekin doktorlik darajasi majburiy shar emas).

Ariza topshirish jarayoni: Dastlab ariza formasini yuklab oling hamda, uni to'ldirishingiz va online tarzda topshirishingiz kerak. Arizaga qo'shib **CV** hamda **ishlayotganini tasdiqlovchi ma'lumotnomani** ham topshirishi kerak. Hujjarlar hammasi bitta PDF formatdagi faylga birlashtirib, topshiriladi. Ro'yxatdan o'tish va kerakli hujjatlarni topshirish uchun **SHU YERGA** (<http://www.wssf2018.org/call-for-papers.html>) tashrif buyuring.

Arizani yuklab olish va to'liq ma'lumot uchun **SHU YERGA** (<http://www.wssf2018.org/scholarship.html>) kiring.